

**UZBEKISTAN**

**LANGUAGE & CULTURE**

ISSN 2181-922X

**O'ZBEKISTON:  
TIL VA MADANIYAT**

**AMALIY FILOLOGIYA  
MASALALARI**

2023 Vol. 2 (5)

[www.aphil.tsuull.uz](http://www.aphil.tsuull.uz)

## LINGVOKULTUROLOGIYA

## INSON – MADANIYATLAR CHORRAHASIDA

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/NQUG6205

Yekaterina Shirinova<sup>1</sup>Gulbahor Iskandarova<sup>2</sup>**Abstrakt**

Inson dunyoni anglab borishi barobarida o'zini anglab boradi. O'zini anglab yetgani sari esa olamni va o'zining undagi o'rnini tushunib yetadi. O'zi yashab turgan borliq bilan uyg'unligi his qiladi. Bu jarayon u dunyoga kelib, o'sib, kamol topgan muhit natijasi o'laroq yuzaga kelgan insonning shaxsiy madaniy prizmasi orqali amalga oshadi. Ya'ni inson o'z e'tiqodi, me'yor deb bilgan axloq qoidalari, urf-odatlar, qadriyatlar tizimi, o'zining ona tili orqali olamga boqadi. Mazkur holatlar fanda olamning madaniy manzarasi hamda olamning lisoniy manzarasi terminlari yordamida tushuntiriladi.

Mazkur maqolada madaniyat tushunchasining izohi keltiriladi, madaniyatlarning o'zaro ta'siri, enkulturatsiya va akkulturatsiya jarayonlari yoritiladi. Mazkur jarayonlarning asosiy farqlari, madaniyatlarning o'zaro ta'siri natijasida madaniyatlarda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi, mazkur o'zgarishlar qanday omillar ta'sirida yuzaga kelishi xususida ma'lumot beriladi. Insonning butun hayoti turli madaniyatlar chorrahasida kechishi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, enkulturatsiya, akkulturatsiya, assimilyatsiya, separatizatsiya, marginalizatsiya, integratsiya, akseptatsiya, yangi madaniyatning shakllanishi, reaksiya.

**KIRISH**

---

<sup>1</sup> Shirinova Yekaterina Turakulovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi.

**E-pochta:** yekaterina@navoiy-uni.uz; moxi5690@mail.ru

**ORCID:** 0000-0002-9164-5327

<sup>2</sup> Iskandarova Gulbahor Turabayevna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi.

**E-mail:** iskandarovagulbahor@navoiy-uni.uz

**ORCID:** 0000-0002-4189-2725

**Iqtibos uchun:** Shirinova, Y.T., Iskandarova, G.T. 2023. "Inson – madaniyatlar chorrahasida" O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5): 83-89. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/NQUG6205

Ma'lumki, inson hamisha o'zini o'rab turgan olamni anglash sari intilib yashaydi. Mana shu tarzdagi hayot yo'li davomida uning moddiy borlig'i ma'naviy borliq bilan to'yinib, uyg'unlashib boradi. Inson hayotida muayyan qadriyatlar tizimi vujudga keladi. Inson turmushining ajralmas qobig'iga aylanib boruvchi mana shu me'yorlar tizimi madaniyatdir. Mazkur tushunchaga berilgan izohlarga tayanib, o'z ta'rifimizni beradigan bo'lsak, madaniyat – insoniyat libosi, muayyan shaxs yoki jamiyatning yashash tarzi, axloq me'yorlari, dunyoqarashi, urf-odatlar, an'analari, olamni anglash darchasi va o'zligini ifodalash yo'sini. Madaniyat *alohida individning* hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat)ni hamda *ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning* hayot faoliyati usulini aks ettiradi [Isayeva Sh.B., Shirinova Y. 2023]. Dastlab madaniyat tushunchasi insonning tabiatga ehtiyojlari, maqsadiga muvofiq ta'siri (yerni ishlash va hakoza) hamda insonning o'zini tarbiyalash va o'qitish ma'nolarini ifodalagan. Vaqt o'tishi bilan semantikasi kengayib, madaniyat tushunchasi orqali taraqqiyot bilan bog'liq mazmun tushunila boshlangan.

Mutaxassislarning fikricha, "madaniyat" («cultio» va «culte») atamasi lotinchadan o'girilganda "ishlov berish", "parvarish qilish" degan ma'nolarni ifodalaydi. Keyinchalik "ma'rifatli bo'lish", "tarbiyalilik", "bilimli bo'lish" ma'nolarida ham qo'llana boshlagan.

## ASOSIY QISM

G'arbiy Yevropada madaniyat tushunchasi XVIII asrning oxiridan e'tiboran hozirgi mazmunni kasb etgan bo'lsa-da, faqat XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar kategorial tizimidan mustahkam o'rin olgan. Madaniyat masalasi tilshunolik nuqtayi nazardan ham, mamlakatlararo turli sohalaridagi aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish jihatidan ham dolzarb ahamiyatga ega bo'la boshladi va turli fanlar integratsiyasini taqozo qildi, lingvokulturologiya, madaniyatlarda kommunikatsiya singari sohalar rivoji uchun turtki bo'ldi. Sharqda ham qomusiy olimlar, allomalar, ijodkorlar asarlarida madaniyatning mazmun-mohiyati, inson turmushidagi ahamiyati keng yoritilgan. Shu o'rinda qayd qilib o'tish joizki, har bir insonning shaxsiy madaniyati u hayoti davomida duch keladigan va unga o'z ta'sirini o'tkazadigan madaniyatlar kesishuvida shakllanadi.

Madaniyat mohiyatiga ko'ra moddiy va ma'naviy madaniyatlarga bo'linadi. Kishilik tarixining uzoq davrlarida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayoni quyidan yuqoriga, oddilikdan murakkablikka, alohidadan umumiylikka tomon siljiydigan o'ziga xos uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Madaniyat – bu me’yorlar majmuasi, ya’ni nima ruxsat berilgani va nima taqiqlangani. Bu me’yorlar muayyan jamiyat tomonidan taqsimlanadi, ular insonlar tomonidan o’zlashtiriladi, inson esa uning bir qismiga aylanadi.

Inson tomonidan madaniyatning o’zlashtirilishi enkulturatsiya yoki inkulturatsiya (madaniyatga kirish) deyiladi.

Madaniyat ontogenez (individual rivojlanish) jarayonida o’zlashtiriladi.

Enkulturatsiya terminining muallifi Melvil Jin Xerskovits mazkur jarayonning ikkita bosqichini ajratgan:

*Birinchi bosqich* (tug’ilgan kundan boshlanadi) – axloq qoidalari, me’yorlarini o’zlashtirish bosqichidir. Ushbu bosqichda, shaxs tanlash va baholash huquqidan mahrum bo’ladi, madaniyatga kirishga “qarshilik” qila olmaydi, unda o’sadi, rivojlanadi va o’zidan oldingi etnik-madaniy tajribani faqat o’zlashtiradi Bunda u yaqin insonlari, qarindoshlarining shaxsiy madaniyati hamda o’sib, kamol topayotgan oilasi madaniyati qurshovida bo’ladi va barchasidagi qirralarni salamasdan o’zlashtirib boradi, nusxa ko’chiradi. Xalq orasida ko’p qo’llanadigan “Qush uyasida ko’rganini qiladi” maqola ham aynan shunday ma’noda aytilgan. Biroz ulg’ayganidan keyin uning do’stlari paydo bo’ladi. Tabiiyki, turli oilalarda, ya’ni turlicha madaniy qurshovda voyaga yetayotgan do’stlar madaniyati ham shaxs madaniyatiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. “Do’sting kimligini ayt, sening kimligingni aytaman” maqoli ham bejizga aytilmagan. Qayd qilish joizki, do’st qurshovi enkulturatsiyaning birinchi bosqichida ham, ikkinchi bosqichida ham, akkulturatsiya jarayonida ham shaxs madaniyati shakllanishiga davomli ta’sir ko’rsatuvchi muhim omildir.

*Ikkinchi bosqich* – bu jamiyatda qabul qilingan me’yorlarni baholash, muhokama qilish mumkin bo’lgan ongli bosqichdir. Ushbu bosqichda bu me’yorlarni o’zgartirish hamda madaniyatning yadrosiga ta’sir qilmaydigan submadaniyatlar paydo bo’lishi mumkin [Guzikova 2015, 124].

Enkulturatsiya jarayoni natijasi o’laroq bolada shakllangan dastlabki madaniy elementlar ham uning nutqida o’z ifodasini topadi. Bu holat ham o’z navbatida muayyan darajada tadqiq qilingan [Iskandarova G.T. 2023. 114–121].

Insonni yoki guruhni yangi madaniyatga moslashtirish – akkulturatsiya jarayonidir. Avvalo, akkulturatsiya va enkulturatsiya (inkulturatsiya) tushunchalarini bir- birdan farqlash kerak.

<b>Enkulturasiya</b>	<b>Akkulturasiya</b>
• birlamchi madaniy me'yorlarga ega bo'lish	• madaniy me'yornlarni o'zgartirishning ikkilamchi jarayoni
• barcha insonlar hayot davomida boshdan kechiradi	• ayrim insonlarga ushbu jarayonga duch keladi

Akkulturasiya jarayonida inson o'zining ikki madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish va unga yangi madaniyatda yashash zarurligiga duch keladi. Shunga ko'ra, insonlar akkulturasiya jarayonida duch keladigan to'rtta madaniyat strategiyasi mavjud:

<b>Assimilyatsiya</b>	inson o'zining madaniyatidan voz kechib, u bilan aloqalarini uzib, butunlay yangi madaniyatga qo'shilib ketadi.
<b>Separatsiya</b>	boshqa madaniyat me'yorlarini qabul qilishdan voz kechib o'z madaniyati bilan identifikatsiyani saqlash. Bunday holatda ozchilikni tashkil qiluvchi madaniy jamoa dominant madaniyat bilan aloqa qilmaslikka, (mumkin qadar) o'zlari jamoa tuzib alohida yashashga harakat qiladilar.
<b>Marginalizatsiya</b>	birlamchi madaniyat o'ziga xoslikni yo'qotish va yangi madaniyat bilan identifikatsiyalashning yo'qligidir (oraliqda qolib ketish).
<b>Integratsiya</b>	akkulturasiya jarayonining eng samaralisidir. Bu asosiy madaniyatini yo'qotmasdan yangi madaniyatga kirishni o'z ichiga oladi.

Assimilyatsiya strategiyasi ko'pincha o'z ixtiyori bilan boshqa mamlakatga (mintaqaga) uzoq vaqt yoki abadiy ko'chib ketadigan odamlar hayotida kuzatiladi.

Separatsiya strategiyasi o'z Vatanini xohishlariga zid ravishda tark etishga majbur bo'lgan qochqinlarga xosdir. Agar bunday ayirmachilikka dominant madaniyat vakillari da'vat etsa, bu segregatsiya deyiladi.

Marginalizatsiya insonning asl madaniy guruhini saqlab qololmasligi va yangi madaniyatga qo'shilolmasligidan kelib chiqadi. Marginalizatsiya odatda mezbon madaniyat tomonidan kamsitilishning natijasi ham bo'lishi mumkin.

Integratsiya ikki tomon (retsipient – oluvchi va donor – beruvchi madaniyatlar)ning o'zaro hurmati va har bir madaniyatning noyob xususiyatlarini saqlab qolish zarurligini tushinish va hamkorlik qilish istaklari orqali yuzaga keladi.

Akkulturasiya ikki yoki undan ortiq madaniyatning bir-biriga ta'sir o'tkazishidir. Madaniyatlar o'zaro ta'sirining shakllari va tamoyillari farqlanadi. Tarixan o'zaro ta'sirning do'stona, ixtiyoriy (bunday holatlarda o'zaro aloqa teng hamkorlikka asoslanadi) ham-

da zo'rlash, mustamlakaga aylantirish, harbiy yo'l bilan bosib olishga (bunday holatlarda o'zaro aloqa bir tomonlama manfaatga asoslandi) asoslangan shakllari ma'lum [Usmonova, Rixsiyeva 2017, 135].

Yuqorida insonlar yangi madaniyatga kirishayotganda qanday strategiyalarni tanlashi mumkinligi haqida ma'lumot berilgan edi. Mazkur strategiyalar natijasida madaniyatlarda quyidagi jarayonlar ro'y berishi mumkin: akseptatsiya (bir madaniyat tomonidan boshqa bir madaniyatning yutib yuborilishi); yangi madaniyatlarning shakllanishi (bir nechta madaniyat kesishgan nuqtada yangi bir madaniyat shakllanishi mumkin); reaksiya (begona madaniyatning inkor etilishi); o'zlashtirish (begona madaniyat elementlarining o'zlashtirilishi), adaptatsiya (madaniyatlarning bir-biriga moslashishi).

Madaniyatlardagi o'ziga xosliklar, tabiiyki, o'sha madaniyat sohibi bo'lgan millatning tilida ham in'ikos etadi, turli madaniyat vakillari o'zaro muloqotga kirishganda bir-birining madaniy xususiyatlari haqida xabardor bo'lmasa, o'zaro muloqotlarida madaniy to'siqlar yuzaga keladi [Shirinova Y. 2022; Shirinova Y. 2023]. So'zlar semantikasidagi turli ma'no nozikliklari esa muayyan xalq ma'naviy-madaniy boyligi bo'lgan badiiy asarlar tarjimasida jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi aniq. Bu masala esa o'z navbatida tadqiqot obyekti sifatida bir qator ishlarda o'rganilgan [Kadirova X. 2021]. Anglashiladiki, inson shaxsining shakllanishida uni qurshab turgan olam ta'sirini anglash ko'p jihatdan uning o'zligini anglash vositasidir.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, inson turli madaniyatlar chorrahasida hayot kechiradi, shu madaniyatlar ta'sirida uning o'zligi shakllanadi. Inson madaniyat qirralarini muayyan davrda to'g'ridan-to'g'ri, yaxshi-yomonni ajratishga o'rgangani sari esa saralab o'zlashtiradi. Enkulturratsiya va akkulturratsiya jarayonlari inson ontogenezi jarayonida, ya'ni tug'ilganidan umrining oxiriga qadar davom etadigan uzluksiz, dinamik jarayondir. Madaniyatlarning o'zaro ta'siri dunyoning madaniy xaritasini doimiy yangilab turadi va rang-barang qiladi.

## **Adabiyotlar**

*Isayeva Sh.B., Shirinova Y.T.* 2023. Madaniyatlarning o'zaro ta'siri. Enkulturratsiya va akkulturratsiya jarayonlari.// "Ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqot: tajriba va muammolar" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent. – 190-195-b.

- Гузикова, М. О. 2015. Основы теории межкультурной коммуникации: [учеб. пособие]. – Екатеринбург: Издво Урал.ун-та, – 124 с.
- Usmonova, Sh., Rixsiyeva, G. 2017. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma. – Toshkent. – 135 b.
- Shirinova, Y.T. 2022. Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida // INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. September.
- Ширинова, Е. Т. 2023. «Некоторые соображения о коммуникации». Узбекистан: язык и культура. Вопросы прикладной филологии. 1(5): 84-91. Получено с <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/84-91> DOI: <https://www.doi.org/10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/EFEZ1339>
- Искандарова, Г. (2023). РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ В ГЕНДЕРНОМ АСПЕКТЕ НА ПРИМЕРЕ ДЕТСКОЙ РЕЧИ. *Язык и культура Узбекистана*, 5(1), 114–121. Получено с <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/53>
- Кадырова Х. 2021. Проблемы замены эвфемизмов и дисфемизмов в художественном переводе. // Международный научный журнал ELMİ İŞ, AZERBAIJAN, Баку. St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>.

## HUMAN – AT THE INTERSECTION OF CULTURES

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/NQUG6205

Ekaterina Shirinova<sup>1</sup>

Gulbakhor Iskandarova<sup>2</sup>

### Abstract

Understanding the world, a person understands himself. By becoming aware of himself, he understands the world and his place in it. He feels harmony with the existence in which he lives. This process is carried

---

<sup>1</sup> Shirinova Ekaterina Turakulovna - Doctor of Philosophy in philological sciences (PhD), senior lecturer at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** yekaterina@navoiy-uni.uz; moxi5690@mail.ru

**ORCID:** 0000-0002-9164-5327

<sup>2</sup> Iskandarova Gulbahor Turabaevna – Department of Uzbek Language Education in Foreign Language Groups of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** iskandarovagulbahor@navoiy-uni.uz

**ORCID:** 0000-0002-4189-2725

**For reference:** Shirinova, E. T., Iskandarova G. T. 2023. "Human - at the intersection of cultures" Uzbekistan: Language and culture. Issues of Applied philology. 2 (5): 83-89. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/NQUG6205

out through the personal cultural prism of a person, which is created as a result of the environment in which he was born, grew up and matured. That is, a person looks at the world through his beliefs, moral rules, traditions, value system and native language. These situations are explained in science using the terms cultural picture of the world and linguistic picture of the world.

This article provides an explanation of the concept of culture, the interaction of cultures, the processes of inculturation and acculturation. Information is given about the main differences between these processes, what changes occur in cultures as a result of the interaction of cultures, and what factors influence these changes. A person's entire life is analyzed at the intersection of different cultures.

**Key words:** *culture, enculturation, acculturation, assimilation, separation, marginalization, integration, acceptance, formation of a new culture, reaction.*

### References

- Isayeva Sh.B., Shirinova Y.T. 2023. Madaniyatlarning o'zaro ta'siri. Enkulturationsiya va akkulturationsiya jarayonlari.// "Ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqot: tajriba va muammolar" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent. – 190-195 b.
- Guzikova, M. O. 2015. Osnovy teorii mezkhkul'turnoj kommunikacii: [ucheb. posobie]. – Ekaterinburg: Izd vo Ural.un-ta, – 124 s.
- Usmonova, Sh., Rixsiyeva, G. 2017. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma. – Toshkent. – 135 b.
- Shirinova, E.T. 2022. Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida // INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. September.
- Shirinova, E. T. 2023. «Nekotorye soobrazheniya o kommunikacii». Uzbekistan: yazyk i kul'tura. Voprosy prikladnoj filologii. 1(5): 84-91. Polucheno s <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/84-91> DOI: <https://www.doi.org/10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/EFEZ1339>
- Iskandarova, G. (2023). RECHEVOYE POVEDENIYE V GENDERNOM ASPEKTE NA PRIMERE DETSKOY RECHI. YAzyk i kul'tura Uzbekistana, 5(1), 114–121. Polucheno s <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/53>
- Kadirova Kh. 2021. Problemy zameny evfemizmov i disfemizmov v hudozhestvennom perevode. // Mezhdunarodnyj nauchnyj zhurnal ELMÍ İŞ, AZERBAJDZHAN, Baku. St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>.